

DIALEKTIZMLARNING STILISTIK IMKONIYATLARI

Nasiba Jumayevna Yarashova

Navoiy innovatsiyalar universiteti kafedrası professori v.b., f.f.d. (DSc).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11086707>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shevaga xos soʻzlar, bu borada olimlarning qarashlari, shevalardagi keng imkoniyatlar oʻrganiladi va Tohir Malik asarlarida qoʻllangan shevaga xos soʻzlar tahlili keltiriladi

Kalit soʻzlar: shevaga xos soʻzlar, oʻzbek xalq shevalari, dialektizm, dialektizmlarning oʻziga xosligi, tilning boyishi.

STYLISTIC POSSIBILITIES OF DIALECTICS

Abstract. In this article, dialectal words, scholars' views on this matter, wide possibilities of dialects are studied and an analysis of dialectal words used in Tahir Malik's works is presented.

Key words: dialectal words, Uzbek folk dialects, dialectism, uniqueness of dialectisms, enrichment of the language.

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДИАЛЕКТИКИ

Аннотация. В данной статье изучаются диалектные слова, взгляды ученых, широкие возможности диалектов и представлен анализ диалектных слов, использованных в произведениях Тахира Малика.

Ключевые слова: диалектные слова, узбекские народные диалекты, диалектизм, своеобразие диалектизмов, обогащение языка.

Ma'lumki, har bir tilning o'rganilish darajasi, uning ichki qonuniyatlarini o'rganish bu tilning shevalarini tasniflash, ularda saqlanib kelayotgan boyliklarni aniqlash, shevalar bilan adabiy til orasidagi aloqalarni o'rganish bilan uzviy bog'liqdir.¹ O'zbek shevalari umumxalq o'zbek tilining bir tarmog'i bo'lmish bilan adabiy til va barcha o'zbek shevalari uchun ham xos bo'lgan umumiy leksik qatlamga ega shuningdek, o'zbek shevalarida yana bir o'ziga xos leksik guruh borki, ular shu sheva vakillarining moddiy hayot sharoitlari shu sheva joylashgan hududning etnomik rivoji bilan bog'liqdir¹.

Dialektizmlar xalqning butun tarixi davomida yaratgan yozma yodgorliklarini o'rganish, turli davrlardagi taraqqiyot bosqichlarini belgilash uchun boy material bo'lib xizmat qiladi. O'zbek

¹ Yo'ldoshev T. Tojikistondagi o'zbek shevalarining morfologik qurilishi//Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: Fan6 1990. 3-bet.

¹ Shoabdurahmonov Sh.O'zbek adabiy tili va xalq shevalari//filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1962. 400-bet.

xalq shevalarini o'rganish va oliy maktablarda o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilashga yordam berishda Sh.Shoabdurahmonovning "O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari" nomli monografiyasi qimmatlidir. O'zbek adabiy tili va tayanch shahar shevalari (Toshkent, Farg'ona tipli) o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasini yoritishga bag'ishlangan monografiyada Toshkent, Farg'ona shevalaridagi keng imkoniyatlar haqida mulohaza yuritilib, bunday hollarning hozirgi vaqtda ham mavjudligi qayd etiladi. Shunga ko'ra, adabiy tilning hozirgi vaqtda ham eng foydali va amaliy jihatdan foydali bo'lgan va juda ko'p so'z va terminlarni boy manba hisoblangan dialektlardan olishi vas hu hisobdan boyib turishi alohida ta'kidlanadi.

Dialektologiya, ya'ni shevaga xos so'zlarni o'rganuvchi bo'limning bir qator vazifalari mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

1) ayrim sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish. Masalan:

- Men **kennayilariman**. Hozir akalarini chaqiraman. O'sha kishi bilan gaplashasiz. (III t, 159-b).

Ushbu gapda qo'llangan kennayi so'zi shevaga xos so'z bo'lib, fonetik o'zgarishga uchragan. Aslida, kelin oyi shaklida bo'lishi kerak. Morfologik jihatdan ot so'z turkumiga xos, sintaktik jihatdan kesim vazifasida kelgan.

2) milliy tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o'rnini va shu milliy tilga asos bo'lgan shevalarni aniqlash. Jumladan:

"Ko'z qarashlaridan **akaxon**, nima qilardingiz bizning maishatimizni buzib, bir telefonlik xolingiz bor ekan-ku?" degan ma'noni uqish mumkin edi" (38-b).

-Tabib **og'ajon**, siz hamma narsani bilasiz, ayting, bir oy ichida o'lib qolmaymanmi? (III t, 280-b).

Yuqoridagi misollarda akaxon va og'ajon so'zlarining shevaga xos so'z ekanligi ma'lum. Bugungi kunda adabiy shaklda aka shaklida uchraydi.

3) shevalarning o'zaro munosabatini, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo'lgan munosabatlarini belgilash. Misol uchun:

- **Do'xtirga** qaratyapsanmi? Yo 'tali juda xunuk-ku?

- **Do'xtir dori bergan**. Xudo xohlasa yaxshi bo'lib ketadilar. (II t, 131-b).

Ushbu misollarda keltirilgan do'xtir so'zi adabiy tilda doktor – shifokor shaklida bo'ladi. Bu leksema o'zlashgan so'z bo'lib, dunyo tilshunosligida ham doktor deb qo'llanadi.

Ma'lum hududlarda esa do'xtir shaklida qo'llanadi.

4) umumiy o'xshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma'lum territoriyada tarqalish kartalarini tuzish va shevalarni klassifikatsiya (tasnif) qilish. Masalan:

- Voy, *adasi*, *unaqa demang*, - *Manzura* "O'zingiz yaxshimisiz?" demoqchi edi yonidagi o'g'illaridan uyaldi. (III t, 217-b).

Ushbu gapda adasi so'zi dialekt bo'lib, hozirgi adabiy tilda *dadasi*, *otasi* shaklida bo'ladi. Bizga ma'lumki, bu leksema Toshkent va vodiylar hududlarida keng qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida aytganda, Tohir Malik asarlarida dialektizmlar obrazlarning hududiy mansubligi, davr koloritini yaratish va leksik maqsadlarda qo'llangan. Dialektizmlarning o'rganilmagan jihatlari ko'p va keyingi tadqiqotlarda ularning shu jihatlari yoritilishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
2. Ishayev A. O'zbek dialektal leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Malik T. Shaytanat. 5 jildlik, 2-jild. – Toshkent: Sharq. 2006.
4. Malik T. Shaytanat. 5 jildlik, 3-jild. – Toshkent: Sharq. 2006.
5. Malik T. Alvido, bolalik. – Toshkent: Sharq, 2009.